

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.M.No'monzoda</b>	
Geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarining ijtimoiy-falsafiy tahlili .....	331
<b>F.A.Hamdamova</b>	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash mazmuni .....	334
<b>M.A.Nishonov</b>	
Yangi O'zbekistonda ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirish asoosida vatanparvarlikni tarbiyalash tizimi .....	338
<b>A.A.Meliqo'ziyev</b>	
Bo'lajak pedagoglarda hisobdorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy va ta'limiy asoslari .....	343
<b>S.S.Asatov</b>	
Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qurish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning zamonaviy ahamiyati .....	346
<b>D.Q.Majidova</b>	
Jadidchilik harakatining kelib chiqish tarixi va ta'limoti.....	351
<b>S.R.Qutlimuratov</b>	
Xorazm jadidlarining ilm-fanga bo'lgan munosabati .....	355
<b>N.U.Jamalova</b>	
Globallashuv jarayonida ta'limning o'zgarishi va gumanitar fanlarning o'rni.....	360
<b>M.A.Matmusayeva</b>	
O'yinlarning lisoniy talqinida milliy-madaniy tushuncha ifodasi .....	365
<b>B.B.Xaitbayeva</b>	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish .....	368
<b>F.A.Ibroximov</b>	
Talabalarda tahliliy tafakkurni shakllantirish zaruriyati .....	374
<b>R.B.Tursunov</b>	
O'quv jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etish .....	379
<b>D.B.Toshaliyev</b>	
Oliy ta'lim talabalarini ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....	383
<b>U.Xolova</b>	
Falsafafiy tafakkur taraqqiyot bosqichida ma'rifat davrining boshlanishi. Sharq falsafasida ma'rifat va ma'rifatparvarlik harakatlari («Avesto» misolida ) .....	386
<b>S.E.Baymuradova</b>	
Geografiya fanini masofaviy o'qitishda mobil ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari.....	390
<b>B.M.Qandov</b>	
Turor Risqulov siyosiy faoliyatining boshlanishi va mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o'rni.....	394
<b>A.M.To'rayev</b>	
Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bo'lg'usi kadrlarni kasbiy rivojlantirishidagi muhim omil sifatida .....	400
<b>A.A.Meliqo'ziyev</b>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati .....	404
<b>J.Sh.Mamayusupov</b>	
Falsafa fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari.....	408
<b>Y.S.Sidiqova</b>	
Pedagogikada neyrotexnologiyalar innovatsion vosita sifatida .....	413
<b>B.X.Karimov</b>	
Ilk uyg'onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy–falsafiy merosi va uning jamiyat jivojidagi o'rni .....	418
<b>Y.M.Namozova</b>	
Ta'lim va insonparvarlikka asoslangan "Taraqqiyot strategiyasi" jamiyat barqaror taraqqiyotining manbai sifatida .....	423



УО'К: 101.1

**YANGI O'ZBEKISTONDA ICHKI ISHLAR ORGANI XODIMLARI KASB ETIKASINI  
RIVOJLANTIRISH ASOOSIDA VATANPARVARLIKNI TARBIYALASH TIZIMI**

**СИСТЕМА ВОСПИТАНИЯ ПАТРИОТИЗМА НА ОСНОВЕ РАЗВИТИЯ  
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭТИКИ СОТРУДНИКОВ ВНУТРИШНИХ ДЕЛ В НОВОМ  
УЗБЕКИСТАНЕ**

**THE SYSTEM OF PATRIOTIC EDUCATION BASED ON THE DEVELOPMENT OF  
PROFESSIONAL ETHICS OF INTERNAL AFFAIRS OFFICERS IN NEW UZBEKISTAN**

**Nishonov Mirjalol Adxamjonovich** 

O'zbekiston Respublikas IIV Shaxsiy xavfsizlik bosh boshqarmasi Namangan viloyati  
bo'yicha boshqarmasi katta tezkor vakili

**Annotatsiya**

*Maqolada ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirishning nazariy asoslari, ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari, ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirish istiqbollari o'rganilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirish asoosida vatanparvarlikni tarbiyalash tizimi tahlil qilingan.*

**Аннотация**

*В данной статье рассматриваются теоретические основы развития профессиональной этики сотрудников внутренних дел, социо-философские аспекты этого процесса и перспективы повышения профессиональной этики в данной области. Также анализируется система воспитания патриотизма на основе развития профессиональной этики среди сотрудников внутренних дел в Новом Узбекистане.*

**Abstract**

*This article explores the theoretical foundations for the development of professional ethics among internal affairs officers, the socio-philosophical aspects of this development, and the prospects for enhancing professional ethics within this field. Additionally, it analyzes the system of patriotic education based on the development of professional ethics among internal affairs officers in New Uzbekistan.*

**Kalit so'zlar:** ichki ishlar organi xodimlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy qonuniyatlar, an'anaviylik va zamonaliviylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tizimli va funksional, kasb etikasi, vatanparvarlik.

**Ключевые слова:** сотрудники внутренних дел, национальные и универсальные ценности, социальные законы, традиционализм и современность, сравнительный анализ, анализ и синтез, системный и функциональный, профессиональная этика, патриотизм.

**Key words:** internal affairs officers, national and universal values, social laws, traditionalism and modernity, comparative analysis, analysis and synthesis, systemic and functional, professional ethics, patriotism.

**KIRISH**

Ichki ishlar idoralarining xodimlari o'z tabiatiga ko'ra tarbiyachidirlar, ya'ni jinoyatning oldini olish, oilaviy janjallarni ijobiy hal etish, voyaga yetmagan bolalar bilan ishlash, jamiyatga zarar yetkazuvchi boshqa har qanday zararkunandalar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish ichki ishlar xodimlari kundalik ish faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb an'analari va urf-odatlari, xizmat xususiyatlari, normativ hujjatlar va jamoatchilik fikri ular kasb axloqining asosiy manbalari bo'lib xizmat qiladi. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb axloqi quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb axloqi ularning o'z xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlariga ko'maklashadi.

2. Kasb axloqi ichki ishlar idoralari xodimlarini axloqiy jihatdan tarbiyalab, ularda shijoat, jasurlik,adolat va intizomlilik kabi fazilatlarini shakllantiradi. Ushbu axloqiy xislatlar esa xizmat vazifasini bajarish, jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat tartibini saqlash uchun zarur axloqiy vosita

## ILMIY AXBOROT

hisoblanadi.

3. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb axloqi ichki ishlar idoralalarining manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirib turadi.

4. Huquqiy demokratik davlatni bunyod etish ichki ishlar idoralardan jamoatchilik bilan doimiy hamkorlik qilishni taqozo etadi. Ichki ishlar idoralari xodimlari o'z burchlarini bajarishlari uchun doimo xalqqa tayanishlari zarur, xalqning qo'llab-quvvatlashisiz hech qachon jinoyatchilikning payini qirqish mumkin emas.

5. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb axloqi ularning xizmat qiyinchiliklari tufayli kasb tanazzuliga uchrashlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Vatanga muhabbat siyosiy mafkura emas, balki barkamol axloq va yetuk ma'naviyatdir. Shunga ko'ra, vatanparvarlik tushunchasi tarkibiga kirgan barcha fazilatlar axloqiy qadriyatlar tizimiga ham kiradi. Shu sababli vatanparvarlik o'z mohiyati jihatidan biror hududga, mamlakatga bo'lgan oddiy hurmatdan chuqurroqdir. Vatanga bo'lgan munosabat ma'naviyat darajasiga ko'tarilib, inson faoliyatiga maqsad va yo'nalish berishi - vatanparvarlikdir. Vatanparvarlik ayrim shaxslarning faoliyatida ham ko'rindi. Biroq bunday faoliyat ijtimoiylashib, ko'pchilikka xos bo'lgan ma'naviyat darajasiga ko'tarilgandagina taraqqiyotning muhim omiliga aylanadi. Vatanparvarlik - bir ijtimoiy, etnik guruhga mansub bo'lgan kishilarning o'z tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlarini, milliy obro'si, qadr-qimmatini bilishi, hurmat qilishi, ularga tayanishi, boshqa xalqlarning ham obro'e'tiborini, manfaatlarini hurmat qila bilishni ifodalovchi ma'naviy fazilatdir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Kasbiy etikani rivojlantirish masalalari J.Anderson, S.Anisimov, G.Belov, M.Veber, I.Ilin, V.Konev tomonidan tadqiq etilgan. Jamiyatda madaniyatning yoshlar muammosi va bag'rikenglikka oid jihatlari A.Beyli, I. Gerder, E. Orlova, M.Xomyake ilmiy izlanishlarida alohida muammo sifatida olib qaralgan. O'zbekistonda kasbiy etikani rivojlantirishning nazariy-metodologik jihatdan ilmiy o'rgangan faylasuflar qatoriga S.Agzamxodjayeva, J.Tulenov, I.Imomnazarov, I.Jabborov, Y.Jumaboyev, E.Yusupov, S.Shermuxammedov, X.Shayxova, Mahmud Sattor, A.Jalolov, S.Otamuratov, A.Sharipov, J.Yaxshilikov, N.Muxammadiyev, A.Erkayev, O.G'aybullayev, I.Arzimatova, D.Normatovalarni kiritish mumkin. Shuningdek, kasbiy madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy, tarixiy muammolari bilan bog'liq masalalar B.Aliyev, G.Navro'zova, Q.Nazarov, A.Sharipov, H.Salomova, Z.Qodirova, A.Huseynova, M.Voxidova, L.Gadoyeva, Z.Axmedova ilmiy ishlarida tahlil etilgan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Darhaqiqat, ma'naviyati zaif bo'lgan xalqda vatanparvarlik tuyg'usi kuchli bo'lmaydi. Shu sababli barcha davrlarda bosqinchilar xalqning ma'naviy kamoloti imkoniyatlarini cheklash yo'li bilan uning Vatan haqidagi buyuk tuyg'ularini zaiflashtirish, xalqning vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytiradigan kuch ziyorilar ekanligini yaxshi tushungan ajnabi bosqinchilar dastavval millatni shu ma'naviy rahnamolaridan mahrum qilishga harakat qilgan va butun.

Jumladan, Q.Nazarov vatanparvarlikni umumbashariy tushuncha sifatida talqin etadi va uni Vatan ravnaqi g'oyasining xususiyatlari bilan bog'laydi: "Vatanparvarlik tarixiy taraqqiyot jarayonida paydo bo'lib, tashqi muhit va davrlar ta'sirida shakllangan, kamolga yetib kelgan ijtimoiy-ruhiy tuyg'udir. U har bir insonning butun umri davomida shakllanib, kengayib va takomillashib boradi. Albatta, inson ulg'ayib, voyaga yetar ekan, u butun Yer yuzi odam bolasi uchun umumiyl makon ekanini anglaydi, Ona zamin Quyosh sistemasida inson uchun yagona Vatan ekanini bilib oladi. Shu zaminni asrab-avaylash lozimligini tushunadi. Bunday tasavvurga asoslangan vatanparvarlik umumbashariy tushunchadir".

Pedagog olim M.Quronov "O'zbekiston vatanparvarligi" degan yangi iborani qo'llaydi. "O'zbekiston vatanparvarligi – O'zbekistonni yagonga Vatan sifatida bilish va sevish, uning manfaatlarini himoya qilishga tayyorlik, O'zbekiston tarixini, madaniy merosini hurmat qilish, unga qiziqish, istiqlolga sadoqat, O'zbekistonning kelajagi buyukligiga ishonch, respublika manfaatlarini shaxsiy, guruhiy, mahalliy, hududiy manfaatlardan ustunligini anglash va namoyon qilish demakdir".

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, vatanparvarlik xorijiy ilmiy manbalarda patriotizm (yunon. patriotes – vatandosh, «patris» - Vatan) Vatanga muhabbat, tug'ilib o'sgan yurt bilan bog'liqlik va unga sadoqat sifatida qo'llaniladi. Biroq, patriotizm ko'pincha Vatan dushmanlariga qarshi

ma'naviy-mafkuraviy qurol, xalq milliy o'zligining asosi hamda o'z Vatanining tarixi, madaniyati, qadriyatiga bo'lgan muhabbat sifatida talqin etiladi.

Aslida esa, patriotizmga nisbatan vatanparvarlikning mazmun jihatdan qamrovi ancha keng - u insonparvarlikning nisbatan muayyanlashgan shakli. U, nafaqat o'z vatandoshlari erkini asrash uchun kurash, balki inson ozodligi yo'lidagi xatti-harakatlardir. Shu ma'noda, Vatan himoyasi, bu - inson himoyasi, millat himoyasi. Lekin bu himoya, yuqorida aytganimizdek, faqat jang maydonida emas, balki barcha sohalarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Shu ma'noda, vatanparvarlik, vatanni ulug'lashdan tashqari, uning qadr-qimmatini, mustaqilligini himoya qila bilishdir. Vatanparvarlikning ahamiyati Vatan taraqqiyotining eng mas'uliyatli davrlarida yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Shu ma'noda, vatanparvarlik - yetuk ma'naviyat hisoblanadi.

Vatanparvarlik ijtimoiy hodisa sifatida ham talqin qilgan. Bu borada E.Qalqanovning izlanishlarini alohida ko'rsatish mumkin. Uning fikriga ko'ra, vatanparvarlik ijtimoiy ong formalarining atributiv xususiyati bo'lib, u jamiyatning korrelyatsion-funksional qonunlar tizimida muhim o'rinni tutadi. Chunonchi, vatanparvarlik ijtimoiy ong formalarining atributiv xususiyati sifatida "Vatan" va "vatanparvarlik" tushunchalarining etimologik ma'nolari – ona-yurt va o'z xalqini sevuvchi ma'nolari insonlarga xos tuyg'u - ruhiy hodisa sifatida berilgan. Shuningdek, tadqiqotchi vatanparvarlikni ijtimoiy ongning barcha shakllariga xosligini ta'kidlaydi va vatanparvarlikni tarixiy, ma'naviy, madaniy hodisa sifatida talqin etadi.

Tadqiqotchi E.Qalqanov vatanparvarlik kishining muayyan xalqlar va hududga yaqinlikni his etishi, o'z-o'zini anglashi va ona-yurt, xalqiga vafodorlikning shakllanishi, ularning o'q ildizini esa sadoqat tashkil etishi, sadoqat vatanparvarlikning mavjudlik sharti ekanini aytadi. Chunonchi, vatanparvarlik va baynalminallik inson qalbida ona-yurt, xalqiga xos sadoqatning aynan va bir-biridan farq qiluvchi va bir-birlarini taqozo qiluvchi ikki qarama-qarshi tomonlari ekanliklari, shuningdek, vatanparvarlikning falsafiy va tarixiy ongga ham xosligi tahlil qiladi va "vatanparvarlik" tushunchasiga quyidagi ta'rifni beradi: "Vatanparvarlik – muayyan geografik hududda, muayyan jamoa – elat, millat doirasida kishilar ruhiyatida yuzaga keladigan jamiyatning barcha sohalari bilan bog'liq etnogenetik, tabiiy-huquqiy, axloqiy, iqtisodiy va siyosiy, imonlilik his-tuyg'ularidir. U bir qator ijtimoiy ong shakllarining atributiv xususiyatlariga kiradi va muayyan e'tiqod va xatti-harakatning muvofiqlashuvi sifatida amal qiladi. Vatanparvarlik o'ziga xos substansional bir butunlikka ega ruhiy hodisadir".

"Vatanparvarlik" tushunchasining axloqiy mazmuni bilan bog'liq yana bir muhim masala – bu uning milliy g'urur, or-nomus kabi axloqiy meyorlar bilan bog'liq jihatlardir. Ijtimoiy fanlarga doir o'quv-uslubiy adabiyotlarda vatanparvarlik – xalqimizning qon-qoniga singib ketgan mo'tabar qadriyatlardan birisifatida talqin etiladi. Shuningdek, vatanparvarlik tarbiyasi milliy mafkuraning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, harbiy xizmatchilarni shu ruhda tarbiyalash juda muhim masala. Chunki, milliy istiqlol mafkurasining vazifalaridan biri "vatandoshlarimiz tafakkurida o'zlikni anglash, tarixiy xotiraga sadoqat, muqaddas qadriyatlarimizni asrab-avaylash, vatanparvarlik tuyg'ularini kamol toptirish"dan iborat.

Umuman olganda, vatanparvarlik nafaqat nazariy, balki pragmatik xususiyatga ega. Chunki vatanparvarlik so'zda emas, balki amaliy ishlarda namoyon bo'lganidagina taraqqiyotning hal qiluvchi omiliga aylanishi mumkin.

Yangi O'zbekistonda yoshlarda, ayniqsa bo'lajak yosh kadrlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish va kuchaytirish ijtimoiy-axloqiy ehtiyojga aylandi. Bu ehtiyojning ijtimoiy zaruriyatini quyidagicha izohlash mumkin: Birinchidan, o'zbek xalqining o'zligini anglashi, avvalo, yangi jamiyat asoslарini barpo etishga va yurtimizning taraqqiyotini ta'minlashga ko'p jihatdan bog'liq edi. Bu yo'ladi to'siqlar, qiyinchilik va muammolarni yechishda, xalqning tinchligi va osoyishtaligini asrash uchun odamlarda vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash zarur edi. Bu tuyg'uga o'zini loyiq deb hisoblaydigan shaxs o'z xalqi va davlatining milliy manfaatlarini nafaqat to'la ifoda etishi va sobitlik bilan himoya qilishi, har qanday g'oya va qarshilikka qaramasdan, ularni ro'yobga chiqarish yo'lida butun borlig'ini bag'ishlashi axloqiy ehtiyojga aylandi. Ikkinchidan, O'zbekiston tarixining eng fojiali, eng og'ir davrlarida ham, o'zbek xalqini o'z e'tiqodidan ayirishga va xiyonat qilishga majbur etilgan paytlar bo'ldi. Bu sharoitda "Vatan menga nima berdi, deb emas, men o'zim xalqim, Vatanim uchun, el-yurt taraqqiyoti va istiqboli uchun nima qilmoqdaman, mustaqilligimizni mustahkamlashga qanday hissa qo'shmaqdaman!" degan vatanparvarlik g'oyasi ilgari surildi. Bu

## ILMIY AXBOROT

axloqiy g'oya asosida hech kimdan kam bo'limgan mustaqil davlatni barpo etishdek maqsadni amalga oshirish uchun to'siq va g'ovlar yengib o'tildi. Buning asosiy sababi O'zbekistonda tug'ilgan, uning zaminida yashayotgan va mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy mansubligidan va e'tiqodidan qat'i nazar, respublikamizning teng huquqli fuqarosi bo'lishga munosibdir, degan vatanparvarlik qoidasining amal qilganidir. Bu qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida "O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi", deb belgilab qo'yilgan.

Uchinchidan, o'zlikni anglash, xalqning g'urur va iftixorini yuksaltirish, qadimiy va boy tarixi, bebafo merosini chuqr o'rganish va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish yo'lida zahmat chekib, el-yurtga xizmat qilish yuksak vatanparvarlikni taqozo etadi. Bunday vatanparvarlikni tariximizning g'oyat xatarli va tahlikali bir vaziyatda o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, avlodlarga ibrat bo'ladigan jasorat namunasini ko'rsatgan ajdodlar, mardlik va qahramonlik namunalarni namoyon qilgan jangchilar, Vatan uchun ibratli ishlarni amalga oshirgan ziyo'larning ma'naviy fazilatlarini umuminsoniy axloqiy hodisa sifatida baholash mumkin. S.Otamurodovning fikricha, vatanparvarlik "milliy o'zlikni anglash" tushunchasi tarkibiga kirib, u quyidagi: 1) milliy birlikni va boshqa etnoslar mavjudligini anglash; 2) milliy qadriyatlarga: tilga, tugilib o'sgan joyga, madaniyatga (keng ma'noda) ixlosmandlik; 3) vatanparvarlik; 4) milliy mustaqillik va milliy taraqqiyotga intilish; 5) milliy manfaatlarni anglash kiradi.

Bugungi kunda vatanga muhabbat, kelajakka ishonch tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Hayot tajribasi, insonning ilmiy, axloqiy kamoloti, o'z burchi va mas'uliyatini his qilish imkoniyati kuchayib borishi natijasida vatanparvarlik tuyg'usi kundalik axloq meyorlariga, keyinroq borib e'tiqod va imonga aylanadi. Mamlakatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni, uning tarixini, xalqning boy merosini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tub mohiyatini, respublikamiz imkoniyatlarini chuqr anglagan holda, yuksak istiqbolga erishish yo'lida fidoyilik namunalari ko'rsatmagan kishi haqiqiy vatanparvar bo'lmaydi. Tarixiy madaniy meros esa odamlarda g'ururga assoslangan vatanparvarlik, tuyg'usini uyg'otadi.

Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb axloqi murakkab tuzilishga ega bo'lib, asosan uch tarkibiy qismdan, axloqiy ong, axloqiy amaliyot va axloqiy munosabatlardan tashkil topadi.

Ichki ishlar idoralari xodimlarining axloqiy ongi xizmat jamoalarining manfaatlariga mos keluvchi axloqiy tushuncha, g'oya, qarash, ishonch, tuyg'u, hissiyotlarning bir butun tizimidan iborat bo'lib, kishilarning, xususan, ichki ishlar idoralari xodimlarining jamiyatdagi, kundalik turmushdagi axloqiy faoliyati va xulqi u aks ettiradigan obekt hisoblanadi.

Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb axloqi asoslaridan birini xodimlarining axloqiy amaliyoti tashkil etadi. Ma'lumki, har bir faoliyatda aniq bir maqsadni ko'zlab, tegishli vositalar, usullar orqali harakat qilinadi va ma'lum natijalarga erishiladi. Demak, maqsad, vosita va natijalar inson faoliyatning, jumladan, axloqiy amaliyotning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Ichki ishlar idoralari xodimlarining axloqiy munosabatlari deb ularning aholi guruhlari, mehnat jamoalarida amal qiladigan, qonunlarda buyruqlarda o'z ifodasini topgan va axloq normalari bilan chegaralangan aloqalari, bog'lanishlari, ta'sir va aks ta'sirlari, boshqarishlari va qo'riqlashlariga aytildi.

Ichki ishlar idoralari xodimlarining huquqiy munosabatlari deb ularning qonunda ko'rsatilgan huquq va burchlarini amalga oshirish yuzasidan barcha fuqarolar bilan bo'ladigan aloqalariga aytildi. Binobarin, huquqiy munosabat, birinchi navbatda, yuridik normalarni amalga oshirishning, huquq amal qilishining natijasidir. Aynan huquqiy munosabatlar orqali huquq "yashaydi", amal qiladi.

Shunday ekan, ichki ishlar idoralari xodimlarining axloqiy va huquqiy munosabatlari o'zaro uzviy birlikda bo'lib, bu birlik axloq va huquqning ichki ishlar idoralari xodimlari bilan jamiyat, davlat o'rtasidagi o'zaro manfaatlar nisbatini to'g'ri belgilashi ichki ishlar idoralari xodimlarining axloqiy munosabatlari hamda huquqiy munosabatlarining tenglik prinsipi o'rtasida uyg'unlikni ta'minlagan holda, har bir fuqaroning millati, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi, egallab turgan mavqeyidan qat'iy nazar, ularga nisbatan bir xil talablar qo'yishadi; ichki ishlar idoralari xodimlarining har bir fuqaroning xulq-atvorini baholashda asosiy mezon - adolat prinsipining talablari asosida yondashishida; axloqiy va huquqiy tarbiyaning eng maqbul vositalaridan biri bo'lgan ishontirish usulidan keng foydalanishlarida yaqqol ko'rindi.

Manbalar tahlili shundan dalolat beradiki, vatanparvarlik so'zda emas, balki amaliy ishlarda namoyon bo'lganidagina taraqqiyotning hal qiluvchi omiliga aylanishi mumkin. Murakkab sharoitlarda mustaqilligimizning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy asoslari mustaqamlanayotgan hozirgi kunlarimizda vatanparvarlik e'tiqodi amaliy ishlarda, fuqarolarning kundalik faoliyatida namoyon bo'lishi ayniqsa katta ahamiyatga ega.

Insonda hech qachon tugallangan vatanparvarlik e'tiqodi bo'lmaydi. Zero u inson qalbidek murakkab omilga xos qandaydir Tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy taraqqiyotning turli bosqichlari vatanparvarlikning, ona yurtga bo'lgan mehr-muhabbatning yangi-yangi qirralarini keltirib chiqaraveradi. Binobarin, har bir shaxsda Vatan tushunchasining shakllanishi uning ma'naviy kamoloti va jamiyat rivojlanishi bilan bog'liq holda takomillashib boradi.

### XULOSA

Umuman olganda, vatanparvarlik o'zbek xalqi ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lgan axloqiy qadriyat sifatida zaruriy ma'naviy ehtiyoj tarzida uning nazariy asosi quyidagi xususiyatlarga ega deb bilamiz. Shu jumladan, "Vatan" tushunchasi etnik birlklarga nisbatan qo'llanganda muayyan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Vataniy birlik tarixan shakllangan, inson qalbida ildiz otgan, istiqbol muammolarini chuqur anglash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy birlikdir. Inson o'zining barcha orzu-umidlarini Vatan istiqboli, uning barqarorligi, taraqqiyoti bilan bog'laydi. Shu asosda yuzaga kelgan bilimlar, tasavvurlar, e'tiqodlar va Vatanga bo'lgan munosabatni belgilaydi; vatanparvarlik muayyan millat vakillarini aniq maqsad va manfaatlar yo'lida birlashtiruvchi umummilliyl g'oya hamdir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Андерсон Ж. Пространство, время и категории: Лекции по метафизике 1949-1950. - Sydney University Press, 2007
2. Анисимов С. Духовные ценности: производство и потребление. - Москва: Мысль, 1988. -253 с
3. Белов Г. История философия науки. -Москва: Издательский дом МГУ, 2012. -432 с
4. Вебер М. Наука как призвание и профессия // М. Вебер. Избранные произведения. - М.: Прогресс, 1990. - 456 с
5. Жабборов И. Юксак маданият ва ноёб маънавият маскани. -Тошкент: O'zbekiston, 2012. - 316 б
6. Орлова Э. Введение в социальную и культурную антропологию. - Москва: 1994. - 384 с
7. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллат. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. - 204 б
8. Шермуҳамедов С., А. Очилдиев. Маданият ва цивилизация. -Фарғона, 2000. -42 б